

"MONEY AND BANKS" COURSE
Topic - 10: INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS

«PUL VA BANKLAR» FANI
Mavzu - 10: XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI

Reja:

- 10.1. Xalqaro moliya institutlari. Xalqaro valyuta fondi: maqsadi va vazifalari**
- 10.2. Jahon banki: maqsad va vazifalari**
- 10.3. Osiyo taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari**
- 10.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari.**
Islom taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari

10.1. Xalqaro moliya institutlari. Xalqaro valyuta fondi: maqsadi va vazifalari.

1944 yilda AQSHda bo'lib o'tgan Bretton-Vuds konferensiyasida (rasmiy nomi Birlashgan Millatlar Tashkilotining valyuta-moliya konferensiyasi) dunyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini va yangi xalqaro valyuta tizimi rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilindi. Ushbu konferensiya tomonidan qabul qilingan tarixiy ahamiyatga ega qarorlardan biri ikkita xalqaro moliya instituti – Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) tashkil etilishi bo'ldi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) beqaror valyutalarni qo'llab-quvvatlash, jahon valyuta tizimi tamoyillariga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi valyuta hamkorligini ta'minlash maqsadida to'lov balansi taqchilligini qoplash uchun xorijiy valyutada kreditlar berish uchun tashkil etilgan. Davlatlararo investitsiya instituti sifatida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) tashkil etildi.

Xozirda xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlarga mablag' ajratish va kredit berish bilan shug'ullanadilar, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar.

Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT) - xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir.

Quyidagilar xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokchilari hisoblanadi:

- davlat;
- nodavlat tashkilotlar.

Jahon iqtisodiy rivoji uchun xalqaro moliya institutlari quidagi funksiyalarni bajaradi:

- jahon iqtisodiyotining holatini, tendensiya va rivojlanish omillarini tahlil etadi;
- jahon iqtisodiyotini tartibga soladi, xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozoridagi operatsiyalarni amalga oshiradi;
- investision faoliyatni amalga oshiradi (xalqaro va ichki milliy loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar taqdim etish);
- davlat loyihalarini kreditlash;
- xalqaro ko'mak dasturlarini moliyalashtirish;
- ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish;
- xayriya faoliyatini olib boorish (Абдурахманова, 2021, bb.325-327).

Xalqaro valyuta fondi: maqsadi va vazifalari

Xalqaro valyuta jamg'armasi 1944 yili qaror qabul kilingan bo'lsa, 1945 yilda esa tashkil topgan bo'lib, xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini hamda 190 ta a'zo mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. 1945 yilda tashkil etilgan XVF 190 a'zo davlat tomonidan boshqariladi va u deyarli global hamjamiyat oldida javobgardir. Xalqaro valyuta jamg'armasining ofisi Vashingtonda, AQShda joylashgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasining asosiy maqsadi:

- Xalqaro savdoni kengaytirish va muvozanatlash uchun qulay shart-sharoitlarni ishlab chiqish;
- Ko'p tomonlama ayirboshlash tizimini yaratish va jahon savdosi bilan bog'liq cheklolarni bartaraf etish;
- Xalqaro balanslarining uzunligi va miqdorini qisqartirish.

Xalqaro valyuta fondi to'lov balansining joriy yoki potensial qiyinchiliklariga duch kelayotgan a'zo davlatlar xalqaro zaxiralarini tiklashga, milliy valyutalarini barqarorlashtirishga, importning uchun to'lovlarni davom ettirishga va kuchli iqtisodiy o'sish uchun sharoitlarni tiklashga kreditlar ajratish bilan asosiy muammolarni bartaraf etadi (Mardonova, 2021, bb.184-185)

XVFning asosiy funksiyalari:

- pul-kredit siyosatida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- jahon savdosining kengayishi;
- qarz berish;
- pul almashinuv kurslarini barqarorlashtirish;
- qarzdor mamlakatlarga (qarzdorlarga) maslahat berish;
- xalqaro moliyaviy statistika standartlarini ishlab chiqish;
- xalqaro moliyaviy statistikani to'plash va nashr etish (Абдурахманова, 2021, bb.325-327).

XVJga a'zo bo'lishi uchun mamlakatlardan talab qiladi ularning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilishni. Bitim moddalari a'zo davlatlarning universal majburiyatlarini belgilaydi.

XVFning nizom talablari birinchi navbatda tashqi iqtisodiy faoliyatni, xususan, valyuta-moliya sohasini liberallashtirishga qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiyotini liberallashtirish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga juda katta afzalliklarni beradi, ularning raqobatbardoshligini ta'minlovchi bozorlarni ochadi. Shu bilan birga, qoida tariqasida, proteksionistik choralarga muhtoj bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti katta yo'qotishlarga duchor bo'ladi, butun sanoat (xom ashyo sotish bilan bog'liq bo'lmagan) samarasiz bo'lib qoladi va nobud bo'lishi mumkin. Nizom a'zo davlatlardan valyuta cheklolarni olib tashlashni va milliy valyutalarning konvertatsiyasini ta'minlashni talab qiladi. VIII-moddada a'zo davlatlarning fond roziligisiz joriy to'lov balansi operatsiyalari bo'yicha operatsiyalarga cheklol qo'ymaslik, shuningdek, valyuta ayirboshlashda bir nechta valyuta kurslarini k'ollash amaliyotidan qochish (Абдурахманова, 2021, bb.327-328).

O'zbekiston 1992 yilda XVFGa qo'shildi, tashkilotga a'zo bo'ldi. 1993 yil sentyabrdan O'zbekistonda XVF vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, u respublika va Fond o'rtasidagi hamkorlikni amalga oshirishga, XVFnin Vashingtondagi shtab-kvartirasi bilan tezkor ma'lumotlar almashinuvini ta'minlashga yordam beradi.

2016-yilgacha O'zbekistonning XVJdagi kvotasi 275,6 million SDRni tashkil qilgan edi. 2016-yil yanvar oyida XVF Boshqaruvchilar kengashining XVF kvotalarini 14-ko'rib chiqish bo'yicha qarori kuchga kirganidan so'ng, O'zbekiston Respublikasi o'z kvotasini

275,6 million SDRdan 551,2 million SDRga oshirdi. Shu bilan birga, kvotalarning umumiy sonidagi mamlakat ulushi avvalgidek 0,116 foiz darajasida qoldi (cbu.uz).

O'zbekiston Respublikasi ovoz berishda Koreya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Mo'g'uliston, Vanuatu, Solomon orollari, Samoa, Seyshel, Palau, Mikroneziya, Marshall orollari kabi 15 davlatdan iborat Koreya-Avstraliya guruhiga kiritilgan. Kiribatti, Tuvalu. XVJ Boshqaruvchilar kengashi kamida besh yilda bir marta kvotalar umumiy ko'rib chiqilishini o'tkazadi. Kvotalarni umumiy ko'rib chiqish ikkita asosiy masalani ko'rib chiqadi: kvotalarning umumiy o'sishi hajmi va bu o'sishni a'zo davlatlar o'rtasida taqsimlash.

Birinchiidan, kvotalarni umumiy ko'rib chiqish XVFGa kvotalarning a'zo mamlakatlarning to'lov balansini moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan ham, ushbu ehtiyojlarni qondirish qobiliyati nuqtai nazaridan ham baholash imkonini beradi. Ikkinchiidan, umumiy sharh a'zo davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi nisbiy mavqeidagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun kvotalar miqdorini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari, a'zo davlat umumiy ko'rib chiqishdan tashqari istalgan vaqtda maxsus kvotani to'g'irlash uchun so'rov yuborishi mumkin.

Agar Boshqaruv Kengashi ko'paytirish zarur deb hisoblasa, u o'sishning umumiy miqdorini va uning a'zo davlatlar o'rtasida taqsimlanishini ko'rib chiqadi. Kvotalarga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar umumiy ovozlarining 85 foizining ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanishini talab qiladi va a'zo davlatning kvotasi uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Missiyalarning faoliyati iqtisodiyot, moliya sektori va statistika sohasidagi ishlarning holatini o'rganish, shuningdek, iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi XVJ va Jahon banki Boshqaruvchilar kengashining yillik yig'ilishlarida muntazam ravishda ishtirok etadi.

O'zbekistondan XVJ boshqaruvchisi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari - moliya vaziri, uning o'rinbosari - Markaziy bank raisi hisoblanadi. Markaziy bank XVJ bilan hamkorlik qilish idorasi etib belgilandi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi COVID-19 pandemiyasi boshlanganidan beri 93 mamlakatni 258 mlrd dollarga moliyalashtirdi. Jumladan SSSR davlatlarining ham bir ka'tori moliyalashtirildi. Ular qatorida Uzbekiston, Tojikiston, Belaruss, Ukraina, Moldoviya, Gruziya, Armeniya, Rossiya, Kazakiston, Azerbeyjan.

XVJdagi Uzbekiston davlatining xalqaro zaxirasidan 2,3 % tashkil kilgan (dairynews).

10.2. Jahon banki: maqsad va vazifalari

Jahon banklari guruhi xodimlari kengayishi bilan turli vaqtda tashkil etilgan va functional, tashkiliy va hududiy zhihatdan birlashgan besh tashkilotni o'z ichiga oladi, unda:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB);
- "Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasi (XTA);
- "Xalkaro Molia" korporatsiyasi (XMK);
- Investments kafolatlash bo'icha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA);
- Investments nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM) (Mardonova, 2021, b.186).

Jahon banklari guruhining asosiy maksadi rivozhlanayotgan va iqtisodiyotga o'tish vaqtida bulgan davlatlarga yordam ko'rsatish hiisoblanadi. Ushbu guruh tarkibiga kiruvchi har bir institut uz resurslaridan mustakil ravishda va uzlari rejalashtirish sharoitda korxonalarining iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga hissa qushadigan investisiya loihalarini moliyalashtirish sh buyicha faoliyat olib boradi (Абдурахманова, 2021, bb.327-328).

O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 1992 yil 2 iyuldagi 622-sonli qarori asosida mamlakatimiz ushbu tashkilotga a'zo. Jaxon bankini O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatini batafsil <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/country/uzbekistan> saytidan kuzatish mumkin.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ustavi rasmiy ravishda 1945 yilda kuchga kirgan va 1946 yildan ish boshlagan. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar iqtisodiyotiga uzok muddatli kreditlar va qarzar berish, xususiyl investisiyalarni kafolatlashdan iborat. XVF ga a'zo bo'lgan mamlakatlarga XTTB ga a'zo bo'lish xuquqiga ega. XTTB BMTning maxsus muassasasi davlatlararo investision instituti hisoblanadi.

XTTB tomonidan kreditlar davlat kafolati ostida beriladi. XTTB shuningdek boshqa banklarning o'zoq muddatli kreditlari bo'yicha kafolatlar beradi.

Bank o'zining krediti bilan obyektning 30% qiymatini qoplaydi.

XTTBning resurslari ikkita manba:

- birinchisi, akciyadorlarning kapitali (6 foiz atrofida) hisobidan;
- ikkinchisi, xalqaro moliya bozorlarida akciyalarni joylashtirish orqali (95 %ga yaqini) shakllantiriladi.

Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasi (XTA) yoki xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU) 1960 yilda rivojlanayotgan davlatlarga imtiyozli kreditlar (0,75 % yillik foiz stavkasida) berish maqsadida tashkil etilgan. Uning kreditlari asosan yalpi ichki maxsulot aholi jon boshiga eng kam to'g'ri kelayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. 1993 yilda shunday mamlakatlar miqdori 60 ta bo'lgan. XTTB a'zolari uchun XTA a'zoligi ochik. XTA resurslari XTTB sof daromadidan muntazam ajratmalar hisobidan to'ldirib turiladi. XTA fakat xukumatlarga qarz beradi. Qarzni o'zish muddati 30 yildan 40 yilgacha. Bunday qarzar bo'yicha foizlar olinmaydi, lekin kreditga xizmat qilish qarzning joylashtirilgan qismining 0,5 foizi miqdorida har yili yig'im olinadi. XTA xuquqiy va moliyaviy mustaqil tashkilot bo'lsada u XTTB bilan xodimlarning umumiy shtatiga ega. XTA amalga oshirayotgan loyihalar XTTB qullab-quvvatlayotgan loyihalar mezonlariga javob berishi kerak. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad 875 AQSh dollaridan kam bo'lgan mamlakatlar XTAning kreditiga da'vogarlik qilishi mumkin. Dunyo bo'yicha bunday mamlakatlar soni tahminan 81 tani (2008 yil) tashkil etib, ushbu mamlakatlarda 2,5 mlrddan ortiq aholi yashaydi. HRAning kreditlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq ho'jaligini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Unga XTTBga a'zo – mamlakatlar kirishga haqli bo'lib, lekin ko'pchilik mamlakatlar bu imkoniyatdan foydalanmaydi, shuning uchun XTTBga a'zo bo'lgan 184 ta mamlakatdan faqat 164 tasi uning a'zosi hisoblandi (Mardonova,2021,bb.186-187).

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956 yilda taraqqiy etayotgan mamlakatlarda xususiyl sektorni barqaror rivojlanishini rag'batlantirish, ularda kambag'allik miqyosini qisqartirish va shu mamlakatlarda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida AQSh tashabbusi bilan tashkil etilgan. XMKning harakat miqyosi jaxonning XMKga a'zo bo'lgan taraqqiy etayotgan mamlakatlari bo'lib, uning yordami shu mamlakatlarning xususiyl sektoriga kreditlar va investitsiyalar bilan qo'llab quvvatlash hisoblanadi. Umuman XMK xalqaro lizing operatsiyalarida yetakchi o'rinni egallaydi va u bugungi kunda 50 mamlakatning 96 lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirgan, 40 mamlakatning 120 dan ortiq lizing sohasidagi investisiya loyihalarini amalga oshirishda texnik yordam ko'rsatgan hamda 25 mamlakatdagi lizing kompaniyalarining muassisi hisoblanadi. Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) – jahon banki guruxida 1988 yilda tuzilgan eng yangi tuzilmadir. Uning asosiy vazifasi notijorat tavakkalchilikdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlarda investorlarga beriladigan kafolot hisobiga, shuningdek sarmoya oqimini yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi qulay investisiya muhitini va axborot bazasini yaratishda ko'maklashuvchi a'zo mamlakatlarga maslaxat xizmati ko'rsatish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida investisiyalar

oqimiga yordam berishdir. IKXA jahon bankidan mustaqil tashkilotdir. XMK singari u operativ xodimlar va xuquq maslaxatchilaridan iborat o'z shtatiga ega, lekin bankning ma'muriy va 188 boshqa xizmatlaridan foydalanadi.

Xalkaro molia korporatsiyasi (XMK) jahon banki guruhining a'zosi xisoblanib, o'z faoliyatini rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda xususiy sektorga yo'naltirgan eng yirik global rivojlanish instituti bo'lib, O'zbekistonda 1993 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

XMKning O'zbekistondagi amaldagi portfeli (2022 yil sentabr xolatiga) bank, moliya, energetika, to'qimachilik, oziq - ovqat, kimyo, mebel sanoati va kichik va o'rta biznesni rivojlantirish yo'nalishlarida jami 480 million AQSH dollarlik 28 ta investitsiya loyihasi hamda mamlakatning moliya va energetika sohalarida ishlab chiqilayotgan 474 million dollarlik 5 ta loyihadan iborat.

Xalqaro moliya korporatsiyasi O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatadi.

XMK davlat-xususiy sheriklik modelidan foydalangan holda sog'liqni saqlash sohasiga xususiy sarmoya va ekspertlarni jalb qilish, shu asosda moliyalashtirish, yaratish, boshqarish va aholiga gemodializ xizmatlarini ko'rsatish uchun xususiy sektor ishtirokchisini aniqlashda maslahat yordamini ko'rsatmoqda.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) O'zbekiston hukumatini toza energiyaga o'tish va elektr energiyasiga ortib borayotgan talabni qondirish bo'yicha shamol stansiyalari loyihalarini ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlash bo'yicha kelishuv imzoladi.

XMK O'zbekiston hukumatiga mamlakatning bir qancha hududlarida quvvati 500 megavattgacha bo'lgan shamol elektr stansiyalarini qurish va ulardan foydalanish uchun xususiy sektor tajribasi va kapitalini jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklikni shakllantirish bo'yicha maslahat beradi. Loyiha O'zbekistonning 2026-yilgacha elektr energiyasining 25 foizini qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqarish maqsadiga hissa qo'shadi.

Dunyo bo'ylab 743 gigavatt dan ortiq o'rnatilgan quvvatga ega shamol elektr energiyasini ishlab chiqarishning eng tez o'sib borayotgan va eng arzon manbalaridan biridir. O'zbekiston hukumati 2026-yilgacha besh gigavatt quyosh va uch gigavatt shamol energiyasini ishga tushirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Loyiha hukumatning qayta tiklanadigan energetika salohiyatini oshirish bilan birga O'zbekistonning energiya majmuasini diversifikatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlariga hissa qo'shadi.

XMKning strategik hamkorligi bilan "Fargonazot" AJ ustav kapitalidagi aksiyalar paketini xususiylashtirish bo'yicha kelishuv muvaffaqiyatli erishilganini qayd etdi. Shuningdek, "Navoiyazot" AJni xususiylashtirish bo'yicha keyingi chora-tadbirlar va hamkorlikning boshqa istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha maslahat yordami.

Investisiyalarni kafolatlash bo'icha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA) Jahon banki guruhi tarkibiga kiradi) va uning shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan (miga.com).

IKKA xorijiy xususiy investorlarga notijorat (ya'ni siyosiy) risklardan sug'urta (kafolat) berish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiradi. IKKA, shuningdek, mamlakatlarga investitsiya imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatishda texnik yordam ko'rsatadi.

Bir tomondan, IKKA xalqaro huquq sub'ektiga xos bo'lgan imtiyoz va immunitetlarga ega xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. Shu bilan birga, IKKA faoliyatining asosiy predmeti – xorijiy kapitalni investitsiyalash bilan bog'liq risklarni sug'urtalash tijorat xarakteriga ega.

Sug'urta majburiyatlari bo'yicha IKKA sug'urtalovchilar oldida mustaqil mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi (Seul konventsiyasining 17-moddasi). Shunday qilib,

IKKA xalqaro tashkilot sifatidagi vazifalari va sug'urta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi muassasa sifatida moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi.

IKKA a'zo davlatlar o'rtasida ishlab chiqarish maqsadlarida investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi, ularni asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb qiladi va shu tariqa Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa xalqaro rivojlanish moliya institutlari faoliyatini to'ldiradi.

Ushbu maqsadga erishish uchun boshqa a'zo davlatlardan har qanday a'zo davlatga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan notijorat risklardan qo'shma sug'urta va qayta sug'urtalashni o'z ichiga olgan kafolatlar beradi.

Seul konventsiyasining 11-bandiga binoan, IKKA investorlarga quyidagilar bilan bog'liq xavflarni qoplashni kafolatlashi mumkin:

- valyutani qabul qiluvchi davlatdan tashqariga o'tkazish bo'yicha cheklovlar;
- ekspropriatsiya va shunga o'xshash choralar;
- qabul qiluvchi davlatning kafillik egasi bilan shartnoma tuzishdan bosh tortishi yoki bunday kelishuvni buzganligi;
- qabul qiluvchi davlat hududida harbiy harakatlar yoki fuqarolik tartibsizliklari.

IKKA to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarini sug'urta qiladi (korxonani boshqarishda ishtirok etishga erishishga qaratilgan bo'lmagan investitsiyalar - ovoz beruvchi aktsiyalarning kichik paketlarini va korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish (imtiyozli aktsiyalar), obligatsiyalar).

Shu bilan birga, investitsiyalar turli shakllarda ifodalanishi mumkin: naqd pulda, asbob-uskunalar, patentlar, texnologik jarayonlar, texnik xizmatlar, menejment sohasidagi nou-xau, tovar belgilari.

Seul konventsiyasi aktsiyalarga obuna bo'lish uchun dastlabki va keyingi to'lovlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi. IKKAning obuna kapitali barcha a'zo davlatlardan keladi.

IKKA tuzilmasi Boshqaruv Kengashi, Direktorlar Kengashi, Prezident va Agentlik tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish uchun xodimlarni o'z ichiga oladi.

Investitsiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM)ga 1966 yilda asos solingan bo'lib, davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro arbitraj tashkiloti (xalqaro investitsiyaviy arbitraj) hisoblanadi (icsid.worldbank.org).

O'zbekiston Respublikasi ushbu Konventsiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 7-maydagi "Davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal etish tartibi to'g'risidagi konventsiyaga qo'shilish to'g'risida"gi 881-XII-sonli qaroriga muvofiq qo'shilgan".

INHXM investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha konventsiya asosida ishlaydi. Konventsiya nizolarni hal qilishning ikkita asosiy usulini ko'rib chiqadi:

- tomonlarni yarashtirish;
- hakamlik muhokamasi.

Shunga ko'ra, konventsiya ish yuritishni boshlash, yarashtirish va hakamlik muhokamasi uchun protsessual qoidalarni o'z ichiga oladi.

Markazda tomonlarning xizmati ixtiyoriy va pullikdir.

To'lov miqdori Bosh kotib tomonidan tasdiqlanadi.

Hozirgi vaqtda ko'plab transchegaraviy investitsiya shartnomalari INHXMga investitsiya nizolari bo'lgan taqdirda arbitr sifatida murojaat qiladi.

1978 yilda Vashington konventsiyasiga qo'shimcha protokol (Investitsiya nizolarini hal qilishning qo'shimcha vositalari) qabul qilinishi bilan Markazning vakolatlari kengaytirildi. Ushbu hujjat quyidagilarga imkon berdi:

- oluvchi davlat yoki investorning vatani konventsiya ishtirokchisi bo'lmagan taqdirda nizolarni hal qilish uchun yarashuv va hakamlik tartib-qoidalaridan foydalanish;
- to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan kelib chiqmagan nizolarda yarashuv va hakamlik tartiblarini qo'llash;
- faktlarni aniqlash (nizoni mohiyati bo'yicha hal qilish emas, balki uning oldini olishga xizmat qiladi).

Hozirda INHXMga 154 ta davlat va Kosovo a'zo (2022 yil mart holatiga ko'ra) (Mardonova,2021, bb186-187).

10.3. Osiyo taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari.

Osiyo taraqqiyot banki 1966 yilda tashkil etilgan bank bo'lib, uning asosiy vazifasi Osiyo va Uzoq Sharq mintaqalariga kreditlar yo'naltirish va texnik yordam ko'rsatish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat.

Bosh qarorgohi Manila shahrida (Filippin) joylashgan.OTBning eng yirik aksiyadorlari Yaponiya (15,62%), AQSh (15,51%), Xitoy (6,45%), Hindiston (6,34%), Avstraliya (5,79%), Indoneziya (5,45%), Kanada (5,24%), Janubiy Koreya (5,04%) va Germaniya (4,33%). Bank a'zolari 67 ta davlat: Osiyo va Tinch okeani mintaqasidan 48 ta davlat va 19 ta nomintaqaviy a'zo. Asosiy aksiyadorlar AQSh, Yaponiya va Avstraliyadir (Wikipedia).

OTBning asosiy faoliyati:

- ishtirokchi mamlakatlarda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarni moliyalashtirish;
- loyiha va dasturlarni rejalashtirish va amalga oshirishda grantlar va texnik ko'mak berish;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga investitsiyalarni jalb qilish;
- rivojlanayotgan a'zo-mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishda ko'maklashish;
- konsalting xizmatlarini ko'rsatish. OTB qo'llab-quvvatlashning ustuvor tarmoqlari transport va kommunikatsiyalar, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va moliya sektori (asosan mikromoliya) hisoblanadi. Kreditlarning eng katta ulushi Hindiston, Pokiston va Filippinga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning COVID-19dan yashil, barqaror va inklyuziv tiklanishini qo'llab-quvvatlash uchun OTB ta'lim, energetika, sog'liqni saqlash, moliya, transport, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, shahar va suv xo'jaligi sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi.

OTBning 2019-2023-yillarda O'zbekiston bo'yicha Hamkorlik strategiyasi mamlakatning milliy rivojlanish strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqlashtirilgan:

- (i) davlat boshqaruvini isloh qilish;
- (ii) iqtisodiy rivojlanish, jumladan, tarkibiy islohotlar, xususiy mulk va tadbirkorlikni mustahkamlash, transport va savdo aloqalarini yaxshilash;
- (iii) ijtimoiy rivojlanish.

Yillik yangilanadigan axborot byulleteni OTBning mamlakatdagi faoliyati haqida qisqacha ma'lumot va aloqa ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

OTB tarkibiga a'zo sifatida BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Osiyo—Tinch okean komissiyasiga a'zo bo'lgan davlatlarga kiritilishi mumkin (adb.org).

Hozirda bankka 61 mamlakat a'zo. Bank faoliyatining asosiy maq-sadi Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga va tashqi savdosiga ko'maklashishi, moli-yaviy, texnik va iqtisodiy yordam ko'rsatish. Bank xususiy sektorni rivojlantirishga, mintaqaviy hamkorlik va atrof muhit tozaligini saqlashga alohida e'tibor qaratadi.

OTB tomonidan 1968—83 yilda 9,2 mlrd. dollar odatdagi kredit va 4,2 mlrd. dollar maxsus fond krediti berilgan. OTBning nizom jamg'armasi — 43,6 mlrd. AQSH dollariga teng. Bankning har qanday qarorini hamkorlikda 1/3 ovozga ega bo'lgan AQSH va Yaponiya to'xtatib qo'yishi mumkin. Ularning har biri nizom jamg'armasining 15,9% miqdorida ulushga ega.

Shuningdek, bank huzurida 2 maxsus fond faoliyat ko'rsatadi — Osiyo taraqqiyot fondi va Texnika yordami maxsus fondi (muntazam va maxsus fondi). Oliy organi — Boshqaruvchilar kengashi. Yaponiya vakili hamisha bank prezidenti bo'ladi.

Bankning bitta kreditning o'rtacha miqdori 15 million dollarni tashkil etadi; bank tomonidan kattaroq kreditlar (50 million dollargacha) kamdan-kam hollarda beriladi.

Transport va kommunikatsiyalar, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va moliya sektori ustuvor investitsiya sohalaridir.

Kreditlar ikkita fondan beriladi, yani muntazam va maxsus. Birinchisi, tijorat shartlarida, ya'ni bozor foiz stavkasida va qisqaroq muddatga, odatda, 15-25 yilga kredit berish uchun.

Maxsus fond uzoq muddatli kreditlash uchun mo'ljallangan - 25-40 yilga, imtiyozli foiz stavkasi (1-3%). Muntazam fondan kreditlar bo'yicha imtiyozli davr 3-5 yilni, maxsus fondan esa, qoida tariqasida, 10 yilni tashkil etadi. Bunga yordam beradigan boshqa OTB vositalari a'zo davlatlar, kreditlardan tashqari, texnik yordam, kafolatlar va aktsiyalarni sotib olishdir (Абдурахманова, 2021,с. 341).

O'zbekiston OTB ga 1995 yilda Markaziy Osiyoda 15-chi, a'zo mamlakatlar ichida 22-chi bo'lib a'zo bo'lgan va ushbu bankdagi mamlakatimizni kvotasi 310,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

Bugungi kunda respublikamizda kredit shaklida amal qilayotgan chet el va xalqaro molyaviy tashkilotlar investitsiyalarining 33,6 %i OTB ga to'g'ri kelmoqda. Bankning mablag'lari asosan ikki yo'nalishda - maxsus fond orqali va oddiy fond orqali beriladi. Maxsus fond mablag'lari kam rivojlangan a'zo mamlakatlarga imtiyozli kredit berish va texnik yordam ko'rsatishga yo'naltirilsa, oddiy fond mablag'lari tijorat yo'nalishidagi kreditlar yuqori foiz stavkasi bilan 10-15 yilga beriladi. OTBning O'zbekistonga ajratgan qarzlari muddati asosan 25 yilga muljallangan bo'lib ularni 5 yili imtiyozli davrni tashkil etadi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda OTB ishtirokidagi umumiy miqdori 625,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan 13 ta loyixa amalga oshirilmoqda (Mardanova,2021,bb/186-187).

OTB quyidagi tamoyillar asosida kreditlash uchun loyihalarni tanlaydi:

- Loyihalarimizni rejalashtirish/dasturlashda biz quyidagi bir necha mezonlarga asoslanib, suveren moliyalashtirish (davlat kreditlari) uchun yangi loyihalarga ustuvor ahamiyat beramiz:

- Sektorni rivojlantirish ehtiyojlari.
- Bizning qo'shimcha qiymatimiz va imkoniyatlarimiz.
- Loyihalarni amalga oshirish uchun tegishli vazirlik va idoralarning rivojlanish salohiyati.
- Hukumatning tashqi qarz olishdagi cheklovlari.
- Taklif etilayotgan loyihalarni amalga oshirishga tayyorligi.
- Loyihaga xususiy sektorni jalb qilish usullari.

Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonda iqtisodiy boshqaruvni yaxshilash uchun 150 million dollarlik kredit va 400 ming dollarlik grant ajratishni ma'qulladi.

OTB O'zbekistondagi Farg'ona vodiysidagi temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilishni yakunlash bo'yicha loyihaga 121 million dollar qo'shimcha moliyalashtirdi. Loyiha ayollar va bolalarning sayohatlarini xavfsizroq qilish uchun yirik temir yo'l vokzallarida ona va bola xonalari kabi inshootlarni quradi.

OTB O'zbekistonga Sharqdan G'arbga, Xitoy Xalq Respublikasidan Markaziy Osiyo orqali Yevropaga olib boradigan muhim savdo yo'liga xizmat qiluvchi Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik koridori 2 bilan bog'lovchi 465 km uzunlikdagi temir yo'l liniyasini modernizatsiya qilish uchun 162 mln dollar ajratdi. 2021-yilda investitsiyalar yangi qurilgan temir yo'l liniyasida elektrlashtirish, signalizatsiya va telekommunikatsiya, shuningdek, tortish quvvati tizimini o'rnatish imkonini beradi. Loyiha O'zbekistonning qo'shni davlatlar va jahon bozorlari bilan transport aloqalarini yaxshilash, shuningdek, xalqaro turizmning O'zbekiston sektorini tiklashga qaratilgan.

OTB bank qo'llab-quvvatlanadiga loyihalarini tayyorlash uchun siyosiy maslahatlar, salohiyatni oshirish va tranzaksiyalarga oid maslahat yordamini ko'rsatishda davom etadi hamda O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Milliy rivojlanish strategiyasi va islohotlar kun tartibiga mos keladi.

Iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturi hukumatning moliyaviy boshqaruv samaradorligi va shaffofligini oshirish, davlat korxonalarini boshqarish va faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan monopoliyaga qarshi tizimlarni rag'batlantirish maqsadida huquqiy, normativ-huquqiy va institutsional bazani isloh qilish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

10.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari. **Islom taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari**

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTb) (The European Bank for Reconstruction and Development) — Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek, MDH ga a'zo mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga yordam ko'rsatuvchi xalqaro bank. 1990 yilda 42 a'zo mamlakat hukumatlari tomonidan 10 mlrd. ekyu mablag bilan tashkil etilgan.

1991 yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda. YeTTb bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar (davlat mulki va korxonalarini xususiyashtirish hamda monopoliyadan chiqarish; tadbirkorlikni rivojlantirish; moliya sektorlariga investitsiyalarni jalb etish; kapital bozorini shakllantirish va h.k.)ga moliyaviy yordam ko'rsatadi va ularning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga tezroq qo'shilishiga ko'maklashadi. Bank kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlar sinfini shakllantirish masalalariga katta e'tibor beradi, transport, energetika, sohalaridagi yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashda ishtirok etadi. Bank resurslarining kamida 60% xususiyashtirilayotgan davlat korxonalarini yoki xususiy sektor korxonalariga, 40% infratuzilma yoki boshqa loyihalarga yo'naltiriladi. 1997 yilda bank tomonidan Yevropa Ittifoqi b-n hamkorlikda moliyaviy ta'minlangan loyihalar qiymati 240 mln. ekyuni tashkil etdi.

1991 yilda tashkil etilganidan buyon Bank 6133 dan ortiq loyihani amalga oshirdi¹.

O'zbekiston 1992 yilda boshida YeTTbga a'zo bo'ldi va shu yili Toshkent shahrida uning vakolatxonasi ochildi. 1993 yildan O'zbekistonda loyihalarni amalga oshirishda ishtirok eta boshladi. 1994 yil 10 yanvarda YeTTbning Direktorlar kengashi O'zbekiston Respublikasiga loyihalarni moliyalash masalalari bo'yicha salbiy garov shartlarini bekor qildi va bank infratuzilmasini rivojlantirish, energetika majmui, turizmni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tabiiy resurelarni uzlashtirish, paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish kabi yetti yunalishda faoliyat yuritadi. YeTTb Farg'ona neftni qayta ishlash va jihozlash (umumiy qiymati 81,5 mln. ekyu); energetika ishlab chikarish quvvatlarini oshirish va Sirdaryo GRESning xalqaro andozalarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan (umumiy qiymati 25,2 mln. ekyu) va Toshkent xalqaro aeroportini ta'mirlash, shuningdek,

¹ <https://www.ebrd.com/ru/home.html>

xavfeizlikni oshirish uchun maxsus jihozlar sotib olish (umumiy qiymati 43,5 mln. ekyu) loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratdi.

Eng yirik aktsiyadorlar AQSh (YTTB kapitalining 10,2%), Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya va Yaponiya (har biri 8,7%).

Rossiya Federatsiyasi (4,1%), Ispaniya va Kanada (har biri 3,5%), EI va EIB (har biri 3,5%) 3,1%, Niderlandiya (2,5%), Avstriya, Belgiya, Shveytsariya va Shvetsiya (har birida). 2,3%, Polsha, Norvegiya va Finlyandiya (har biri 1,3%).

“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tizimiga kiruvchi yangi elektr uzatish liniyasini qurish loyihasi bo'yicha kredit va loyiha shartnomasi imzolangan. AJ Xorazm va Buxoro viloyatlaridagi Sarimoy va Jonkeldi aholi yashash punktlari o'rtasida yangi elektr uzatish liniyasini qurish loyihasini moliyalashtirish uchun 47,1 million dollarlik moliyaviy yordam berilishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunga kelib bank O'zbekistondagi 113 loyihaga 3,6 milliard yevrodan ortiq sarmoya kiritdi. YTTB tomonidan “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari”ni mamlakat milliy elektr tarmoqlarining o'tkazuvchanligini kengaytirish va ishonchliligini oshirishga qaratilgan.

YeTTB Buxoro viloyatida umumiy quvvati 1 GVt bo'lgan ikkita shamol elektr stansiyasini qurish uchun 520 million dollar miqdorida sindikatlangan kreditlar ajratdi (uz.event).

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda YeTTB ishtirokida umumiy qiymati 1 mlrd. AKSh dollaridan ortiq bo'lgan 15 loyiha amaliyotga joriy etilmoqda (bunda bankning bevosita moliyalashdagi ulushi 597,7 mln. AQSh dollariga teng). Xususan, YeTTB tomonidan O'zbekistonda urta va kichik biznesni rivojlantirish maqsadida 120 mln. AQSh dollaridan iborat kredit berildi. Shundan 60 mln. AKSh dollari hukumat kafolatisiz O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga, 60 mln. dollari esa hukumat kafolati bilan boshqa tijorat banklariga berilgan (nsp.gov.uz).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2022 yildagi PQ-438-sonli Qarori «Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida «Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 118 ta nasos stansiyasini modernizasiya qilish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida».

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining Direktorlar kengashi tomonidan «Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 118 ta nasos stansiyasini modernizasiya qilish» loyihasini (keyingi o'rinlarda — Loyiha) moliyalashtirish uchun 18 yil muddatga, shu jumladan 4 yillik imtiyozli davr bilan 199,96 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratish ma'qullangan (lex.uz).

Islom taraqqiyot banki: maqsad va vazifalari. Islom taraqqiyot banki (IsDB) - Jidda shahrida (Saudiya Arabistoni) joylashgan xalqaro moliya instituti. U 1973-yil 18-dekabrda Islom Tashkilotiga a'zo mamlakatlar moliya vazirlarining birinchi konferensiyasida tashkil etilgan. O'z faoliyatini 1975 yil 20 oktyabrda boshlagan. Bank kapitali ta'sischi davlatlarning badallari hisobidan shakllantiriladi (isdb.org).

Islom taraqqiyot banki BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi kuzatuvchisi) maqomiga ega.

Hozirgi vaqtda Islom taraqqiyot banki guruhi tuzildi, uning tarkibiga quyidagi tashkilotlar kiradi:

- Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi;
- Xususiy sektorni rivojlantirish korporatsiyasi;
- Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash bo'yicha Islom korporatsiyasi;
- Islom tadqiqot va ta'lim institute;
- Xalqaro Islom savdo va moliya korporatsiyasi (Абдурахманова, 2021,c.

Islom taraqqiyot banki guruhining vazifasi a'zo mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish orqali ishtirok etishdan iborat. Bank o'z faoliyatini shariat qonunlari va tamoyillari asosida amalga oshiradi. Bankning pul birligi islom dinori bo'lib, bir SDRga teng.

Rasmiy til arab tili, lekin ingliz va frantsuz tillari ham ishchi til sifatida ishlatiladi.

Bank a'ziligiga qabul qilishning asosiy talabi Islom hamkorlik tashkilotida ishtirok etish, bank kapitaliga a'zolik badali to'lash hamda bank direktorlar kengashi tomonidan qabul qilingan qoidalar, tartiblar, shartlarga rioya qilish hisoblanadi.

O'zbekiston 2003 yilda Islom taraqqiyot banki a'zosiga aylandi.

O'zbekistondagi loyihalar uchun bir nechta kreditlarni ma'qulladi. Jumladan, Bank rahbariyati Surxondaryoda yangi kombinatsion issiqlik elektr stansiyasi loyihasiga 100,87 million dollar ajratishga rozi bo'ldi. Uning amalga oshirilishi eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini yanada samaraliroq bloklarga almashtirishga yordam berishi kutilmoqda. Shuningdek, ITB O'zbekistonga transport loyihalarini moliyalashtirish uchun 106,7 million dollar miqdorida kredit berishi kutilmoqda. Uning maqsadi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash, shuningdek, turizm imkoniyatlarini oshirishdan iborat (spot.uz).

ITB 1994 yildan buyon O'zbekistonning ishonchli hamkori bo'lib, hamkorlik yillarida ITB o'nlab eng muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun **\$2 mlrd** ortiq mablag' ajratdi.

2022-yilda 2023-2026-yillarga mo'ljallangan eng muhim loyihalar va hamkorlik dasturlarini \$1,6 mlrd miqdorida moliyalashtirishni nazarda tutuvchi alohida dastur qabul qilindi.

Orolbo'yida transport infratuzilmasi, ekologik dasturlarning muhim mintaqaviy loyihalari ko'rib chiqildi 2020 yilda ITB O'zbekistonda jami **\$509,2 mln** iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishni ma'qulladi:

1-yirik loyiha – qishloq joylarda infratuzilmani yaxshilash uchun **\$200 mln**;

2-yirik loyiha – 2021-yil 4-sentabrda O'zbekiston Respublikasi va ITB o'rtasida 20 yil muddatga, shu jumladan imtiyozli davrni hisobga olgan holda jami **\$80 mln** kredit bitimi imzolandi. 5 yil muddatda "O'zbekiston Respublikasi onkologiya muassasalarini modernizatsiya qilish (cbu.uz; isdb.org).

Tayanch iboralar:

Xalqaro moliya institutlari, maqsad va vasifalari, funksiyalari, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasi, Investitsiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'icha ko'p tarmoqli agentlik, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.

Muhokama uchun savollar

1. Xalqaro moliya institutlarining?
2. Xalqaro valyuta fondining tashkil etilish maqsad va vasifalari?
3. Jahon bankining maqsadi va vazifalari?
4. Jahon bankining tarkibi?
5. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining maqsad va vasifalari?
6. Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasining maqsad va vasifalari?

7. Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazining maqsad va vasifalari?
8. Investisiyalarni kafolatlash bo'icha ko'p tarmoqli agentlikning maqsad va vasifalari?
9. Osiyo taraqqiyot bankining maqsad va vazifalari?
10. Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston iqtisodiyatdagi o'rni?
11. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining faoliyati?
12. Islom taraqqiyot bankining maqsad va vazifalari?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахманова М.М. (2021) Деньги и банки: Учебник – Т.: Иқтисодиёт-359с.
2. Mardonova A.T. (2021) Pul va banklar. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, –216 b.

Internet saytlar:

3. <https://ru.wikipedia.org>
4. <https://lex.uz>
5. <https://lex.uz/uz/docs/6307886>
6. <http://taqvim.uz/uz/event/view/4441>
7. <https://nsp.gov.uz/outinst?id=16>
8. <https://cbu.uz/ru/about/international-cooperation/74847/>
9. <https://dairynews.today/news/mvf-s-nachala-pandemii-utverdil-finansirovanie-93-.html>
10. https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp_ext_content/ifc_external_corporate_site/about+ifc_new
11. <https://xs.uz/uz/post/zhamshid-khodzhaev-khalqaro-moliya-korporatsiyasi-khmkning-evropa-va-markazij-osiyo-bojicha-direktori-vibke-shlemer-bilan-uchrashuv-otkazdi>
12. <https://www.miga.org>
13. <https://icsid.worldbank.org/ICSID/FrontServlet>
14. <https://www.adb.org/what-we-do>
15. <https://www.adb.org/ru/publications/uzbekistan-fact-sheet>
16. <https://www.ebrd.com/ru/home.html>
17. <https://www.isdb.org/>